



Comparative analysis of special words: similar and differential aspects

Iroda KAKHAROVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

exclamation word,
linguistic unit,
speech,
imitative word.

ABSTRACT

In the history of world linguistics, the study of exclamatory, imitative and modal words has its own historical stages. In all periods, much attention was paid to their semantics, contextual meaning, etymology, language typology, methodological functions, their place in the text. Exclamatory and imitative words are sometimes confused systematically and structurally due to the fact that they arise as a result of the impact of sounds and images in nature. But these are separate categories, and the main difference lies in their semantic nature, grammatical basis and independent syntactic function in a sentence. In the article, we analyze the linguistic and speech progress of exclamation words in the Uzbek language using examples from the work of Mahmud Kashgari "Devonul lugotut turk".

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp307-312>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Alohida so'zlarning qiyosiy tahlili: o'xshash va differensial jihati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

undov so'z,
lisoniy birlik,
nutq,
taqlid so'z.

Dunyo tilshunosligi tarixida undov, taqlid va modal so'zlarni o'rganishning o'z tarixiy bosqichlari bor. Barcha davrlarda ularning semantikasi, kontekstual ma'nosi, etimologiyasi, tillardagi tipologiyasi, uslubiy vazifalari, matndagi o'rniga katta e'tibor qaratib kelingan. Undov va taqlid so'zlar tabiatdagi tovushlar va tasvirlardan ta'sirlanish natijasida paydo bo'lishi jihatidan o'xshashi tufayli sistem-struktur jihatdan ba'zan qorishtirib yuborilgan. Ammo ular alohida kategoriyalar bo'lib, asosiy farqi semantik tabiati, grammatik asosi, gapda otlashmay

¹ Doctor of Science (DSc), Associate Professor, Uzbekistan State World Languages University.
E-mail: iroda.kaharova@mail.ru

turib mustaqil sintaktik vazifada kelishida ko'rinadi. Maqolada o'zbek tilida undov so'zlarning til va nutqdagi taraqqiyotini Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otut turk" asarida misollarni tahlilga tortamiz.

Сравнительный анализ особых слов: сходные и дифференциальные аспекты

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

восклицательное слово,
языковая единица,
речь,
подражательное слово.

В истории мирового языкознания изучение восклицательных, подражательных и модальных слов имеет свои исторические этапы. Во все периоды большое внимание уделялось их семантике, контекстуальному значению, этимологии, языковой типологии, методическим функциям, их месту в тексте. Восклицательные и подражательные слова иногда путают систематически и структурно в связи с тем, что они возникают в результате воздействия звуков и образов в природе. Но это отдельные категории, и главное отличие заключается в их семантической природе, грамматической основе и самостоятельной синтаксической функции в предложении. В статье анализируем языковой и речевой прогресс восклицательных слов на узбекском языке на примерах из произведения Махмуда Кашгари «Девонул луғотут турк».

KIRISH

Dunyodagi barcha tillarda undov, taqlid va modal so'zlar mavjud. Faqat ularning miqdori ko'p emas. Shular orasida undov va taqlidiy so'zlar fonologik belgilar birikmasidan tashkil topishi nuqtai nazaridan tipiklik kasb etadi. Shuningdek, ular tabiatdagi tovushlar va tasvirlardan ta'sirlanish natijasida ham paydo bo'lishi jihatidan o'xshaydi. Mana shu tufayli o'zbek tilshunosligida taqlidiy so'zlar o'tgan XX asrning yarmigacha morfologik qatlamda undovlar qatorida ko'rsatilgan [14]. Holbuki, undovlar hamda tasviriy va taqlidiy so'zlarning har biri alohida kategoriyalar bo'lib, ularning asosiy farqi semantik tabiati, grammatik asosi, gapda otlashmay turib mustaqil sintaktik vazifada kelishida ko'rinadi. Undovlar esa kelishik va egalik qo'shimchalari yordamida otlashgandagina turli sintaktik vazifalarni bajara olsa, taqlid so'zlar to'ppadan-to'g'ri biror gap bo'lagi bo'la oladi. Shu sababdan taqlid so'zlarni undovlar sirasiga kiritish to'g'ri bo'lmaydi. Shuni inobatga olib, XX asrning ikkinchi choragiga kelib, taqlidlar undovlardan ajratilib, oraliq so'zlar sifatida guruhlangan va ko'proq tasviriy ifodalar sifatida qayd qilingan. Bunda taqlidlarning morfologik o'zgarishi, lug'aviy va aloqa-munosabat shakllarini qabul qilib, "otlashish"iga katta e'tibor qaratila boshlangan.

TADQIQOT METODLARI

Bundan tashqari, tilning kelib chiqishiga oid fikrlarning bevosita undovlar va taqlidlar farazi bilan bog'lanishi ham, bizningcha, ularni o'zaro biriktirishga asos yaratgan. Ayrim olimlarning fikricha, ibtidoiy odam dastlab o'z fikrini tevarakdagi narsa-hodisalar, hayvon va qushlarning ovozini o'z ichki kechinmalari asosida ifodalashi orqali bir-biriga

bildirgan. Keyinchalik bunday soʻzlar boshqa soʻzlar bilan birlashib borganligi fransuz olimi J.J. Russo tomonidan ham aytib oʻtilgan [13]. Taqlidlarning til yaralishida muhim oʻrin tutganligini XX asr boshlarida N.A. Ashmarin ham taʼkidlagan [1]. Olim chuvash tili misolida tasviriy soʻzlarning 115ta morfologik guruhini aniqlab, ularning struktura elementlari, baʼzi fonetik xususiyatlari, metaforizatsiyasi haqida soʻz yuritgan. Ammo bunda N.A. Ashmarin taqlid soʻzlarni undovlar kategoriyasiga kiritgan.

N.K. Dmitriyev ham “Qumiq tilining grammatikasi” asarida taqlid soʻzlarni undovlarning bir turi sifatida qayd qilgan. Shuningdek, u baʼzi bir soʻzlarning taqlid bilan aloqasi borligini izohlagan [6].

Darhaqiqat, tillarning tipologik xususiyatini ularda fizik va nutq tovushlarining ifodalanishiga asoslangan undov va taqlidiy soʻzlar vositasida ham aniqlash mumkin.

Oʻzbek tili agglyutinativ tillardan boʻlgani uchun unda undov va taqlidni bildiruvchi ifodalar birmuncha koʻp, ammo flektiv tillar doirasiga kiruvchi ingliz tilida bunday ifodalar kamroq.

NATIJA VA MUNOZARA

Tilimizda undov, taqlid va modal soʻzlar qadimdan qoʻllanib kelmoqda. Fikrimizni “Devoni lugʻotut turk” orqali dalillay olamiz. Eʼtiborli tomoni shundaki, devonda keltirilgan ayrim soʻzlar undov ham, taqlid ham boʻlib kelishi koʻrsatilganiga guvoh boʻlamiz. Bu esa ularning bir turkum doirasida oʻrganilganiga shu kabi misollarning mavjudligi ham asos yaratgan boʻlishi mumkin degan qarashga olib keladi. Masalan:

- kurt-kurt – undov soʻz;
- kurt-kurt, kirt-kirt – taqlid soʻz. I, 329-1; ar.287-9 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 175);
- cḧir – undov soʻz.
- shir-shir – taqlid soʻz. I, 313-5; ar. 271-17 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 329);
- cḧirt (cḧirt) – undov soʻz;
- chirt – taqlid soʻz. I, 328-11; ar. 286-15 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 329);
- shar-shar – undov soʻz;
- shar-shar – taqlid soʻz. I, 313-21; ar. 272-13 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 338).

Umuman aytganda, undov va taqlid soʻzlar goh “Undov va taqlidlar” deya bir mavzu ostida umumlashtiriladi, baʼzan esa alohida soʻz turkumlari sifatida qayd qilinadi.

Oʻzbek va ingliz tillaridagi taqlid soʻzlar toʻgʻrisidagi nazariy ishlarni koʻzdan kechirarkanmiz, har ikki tilda ham taqlidlarning morfologik sathdagi oʻrni omonat ekanligiga guvoh boʻlamiz – taqlidiy soʻzlarni morfologik kategoriyalash muammosi har ikki tomon tilshunoslarini ham oʻylantiradi. Oʻzbek tilida mustaqil yoki nomustaqil soʻzlardan ajratilib, oraliq turkum yoki “tasviriy ifodalar” turkumiga kiritilgan taqlidiy soʻzlar, ingliz tilida hali hanuz undovlarga oid deya turkumlanadi. Xususan, olimlar V. Gumboldt [5], V. Vundt [3] va M. Myuller [9] taqlidlarni alohida turkum sifatida kategoriyalashdan tiyilishadi, ular taqlidiy ifodalarning reflektor undovlar sirasiga mansubligini eʼtirof etishadi.

Keyingi yillarda taqlid soʻzlarni undovlardan ajratib, alohida soʻz turkumi deb qaralishi, ularni obrazga taqlid va tovushga taqlid sifatida klassifikatsiya qilish mumkinligini koʻrsatmoqda. Binobarin, taqlid soʻzlarni ikkiga boʻlib oʻrganish mumkin:

Birinchisi – **leksik onomatopeya**. U taqlid soʻzlardan iborat. Ular til tizimidagi taqillatish, yorilish, gumburlash bilan bogʻliq soʻzlarni talaffuzda ramziy maʼnoda ifodalab keladi.

Ikkinchisi – **leksik bo'lmagan onomatopeya**. Ular taqlidiy so'zlardan emas, balki tovushlar guruhidan iborat bo'ladi.

Xuddi shunday undov so'zlar ham ko'rinishi jihatidan ikkiga bo'linadi:

Birinchisi – **leksik bo'lmagan undovlar**. Ular faqat tovush yoki tovushlar birikmasidan tashkil topadi. Bunday undovlar his-hayajon, buyruq-xitob kabilarni ifodalash uchun ishlatiladigan tovush yoki tovush birikmalaridir. Demak, ular ko'rinishi jihatidan taqlid so'zlarga o'xshasa-da, mazmuni boshqaligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchisi – **leksik undovlar**. So'z ko'rinishidagi undovlardir.

A. Baskakov taqlid so'zlar va undovlarni, ham semantik, ham forma jihatdan bir kategoriyaga birlashtirish kerak, deb hisoblaydi. U taqlid so'zlarni semantik tomondan ikki guruhga:

1. Tovushga taqlid so'zlar.

2. Obrazga taqlid so'zlarga ajratadi hamda ularga xos xususiyatlarni alohida-alohida ko'rsatadi. Olim taqlid so'zlarning grammatik-funksional xususiyatlariga ko'proq ahamiyat beradi [2].

Modal so'zlar faqat so'z yoki birikma ko'rinishida uchraydi, uning leksik bo'lmagan (tovush) ko'rinishi mavjud emas.

Ba'zan kishi so'zlovchiga o'z emotsional munosabatini bildirishda turli jestlar, tana harakatlari, turish yoki yurishlarda ifodalashi mumkin: 1) sevgi, baxt; 2) hayronlik; 3) qo'rquv, azob; 4) nafrat; 5) g'azab; 6) la'nat kabilarni. Mana shu jihat ham undov va taqlidlarning o'zaro birlashtirilishiga sabab bo'lgan, deyish mumkin.

Ekspressiv javoblar, birinchi navbatda, mimik ifodalar yordamida muayyan maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Mimik ifoda vositalari biologik (lab burish, qosh uchirish) yoki individual (muayyan individ odati) shakllarda bo'lishi mumkin. Mimikalar yordamida emotsiyaning ifodalanishi biologik jarayon hisoblanib, so'zlovchining yoki tinglovchining xarakterini, ifodalanayotgan fikrga u yoki bu jihatdan munosabati (g'azab, nafrat, qo'rquv, shodlik, hayrat...)ni ifodalaydi. Chunki mimik harakatlar orqali emotsionallikka ega bo'lgan so'zlarning nutqiy vaziyatdagi reallashuvi, tinglovchiga ta'sir etish xususiyati yanada ortadi.

O'zbek tilshunosligida morfologik sathda taqlidlar nisbatan mustahkam o'ringa egaligi sababli alohida so'z turkumi sifatida ko'rsatiladi [12]. Ingliz tilida esa taqlidlar ko'proq undovlik xarakteri sabab *interjection* (undov) deya ataladi.

Ba'zan tasvir yoki obrazga taqlid qiluvchi onomatopik birliklar asosida undovlar kelib chiqqani kuzatiladi. Masalan, "haqiqiy taqlid"dan iborat bo'lgan, masalan, sigirning tovushi bo'lgan "mo'o'o" tovushlar birikmasini qayta takrorlash orqali uning "o'rnini egallab", taqlid so'z hosil qilinsa, uni "mo'h-mo'h" deb sigirni chaqirish uchun qayta takrorlab ishlatilsa, buyruq-xitob undovi paydo bo'ladi. Shundan onomatopeya faqat tovushning o'ziga qaratilgani anglashiladi.

Biroq undov va taqlid so'zlar o'rtasida quyidagi bir-biriga yaqin, o'xshash hamda farqli xususiyatlar mavjudligini qayd qilish mumkin:

Jadval 1.

Undov va taqlid so'zlarning o'zaro yaqin, o'xshash tomonlari
1. Taqlid so'zlar va undovlar harakat obrazi, tovush va emotsiyaning nomini ko'rsatmaydi, balki ularning bevosita ifodalanishi hisoblanadi.

2. Undov va taqlid so'zlar ism sifatida qabul qilinadi.
3. Har ikki kategoriyada ham nominativlik xarakterining yo'qligi ularni boshqa kategoriyalardan, turkumlardan ajratib turadi.
4. O'xshash affektiv bo'yoqqa, ekspressivlikka ega.
5. Tovush yoki bo'g'inlar bilan ifoda etiladigan undov va taqlid so'zlar har bir xalqning umumiy artikulyatsion til imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Ular tovushga, obrazga, holatga taqliddan hosil bo'ladi.
6. Undov va taqlid so'zlar tuzilishida ko'pincha cho'ziq unlilar uchraydi.

Jadval 2.

Undov va taqlid so'zlarning o'zaro farqli tomonlari	
Undov so'zlar	Taqlid so'zlar
Undovlar semantik jihatdan so'zlovchining ko'proq ichki kechinmasini, his-hayajonini, buyruq, xitob va iltimosini bildiradi.	Taqlid so'zlar esa semantik jihatdan kishilar va boshqa predmetlarning tovushlari va harakatlarini nusxalaganday tovush yoki harakat obrazi sifatida ifodalaydi.
Undov so'zlar uchun emotsionallik, buyruq, iltimos kabilar xos.	Taqlid so'zlar uchun emotsionallik, buyruq, iltimos xos emas.
Undovlar nutqda modal ma'no ifodalab, bu xususiyati bilan yuklamalar hamda modal so'zlarga yaqin turadi.	Taqlid so'zlar predmetning harakatini va tovushga taqlidini bildirib, ravish va sifatlarga yaqin turadi, ular uchun modallik xos emas.
Undovlarda substantivlashish xususiyati taraqqiy etmagan.	Taqlid so'zlarda substantivlashish kuchli.
Undovlarda takror ko'proq emotsionallikni oshiradi, his-hayajonni kuchli qilib beradi.	Taqlid so'zlarda takroriy forma tovush yoki harakatni kuchaytirishdan tashqari, harakatning birdan ortiq bo'lganligini, davomlilikini ham bildiradi.
Undovlarda so'z yasash hodisasi deyarli yo'q, faol emas.	Taqlid so'zlar so'z yasash tizimida juda faol qatnashadi.
O'zbek tilida undovlar faqat <i>demoq</i> yordamchi fe'li bilan birika oladi.	Taqlid so'zlar esa, <i>etmoq</i> , <i>demoq</i> ba'zan <i>kulmoq</i> hamda boshqa mustaqil fe'llar bilan ham birika oladi.
Undovlar odatda gapning boshqa bo'laklari bilan bog'lanmay, mustaqil gap bo'lib keladi.	Taqlid so'zlar gapning mustaqil bo'laklari (ega, kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol) vazifasida keladi.
Undov so'zlarni ma'lum bir formulaga solish qiyin.	Taqlid so'zlarni ma'lum bir formulaga solish mumkin (undosh+unli+undosh yoki undosh+unli+undosh+undosh).

Ko'rinadiki, undov va taqlid so'zlar alohida so'z turkumlaridan biridir.

Taqlid so'zlarning so'z turkumlari tizimida o'z o'zni, lug'aviy-morfologik-sintaktik tabiati keyinchalik tan olindi. Ungacha taqlid so'zlar o'zi kabi alohida xususiyatga ega bo'lgan undov so'zlar doirasida tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida taqlid so'zlarning undov so'zlar tarkibida tadqiq qilinishi XX asr yarmigacha davom etgan.

Rus olimi A.I. Germanovich rus tilshunosligida ilk marotaba taqlid so'zlarni maxsus o'rgandi [4]. P.G. Strelkov taqlid so'zlarni undovlarning bir turi deb qaraydi [10].

A. Is'hoqov qozoq tilida taqlid so'zlarning leksik va grammatik xususiyatlarini hisobga olib, ularni alohida so'z turkumiga ajratish kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim taqlid so'zlarning og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda tutgan o'zni, stilistik hamda fonetik xususiyatlariga alohida ahamiyat beradi. *Tars-tarsni tars-tursga o'zgartirish* bilanoq, ularning ma'nosida yangi ottenka paydo bo'ladi degan fikrni ilgari suradi [7].

A. Sariboyev ham qozoq tilida taqlid soʻzlarning undovlarga munosabati masalasiga koʻproq ahamiyat beradi [11].

Qirgʻiz tilshunosi S. Kудайберганов koʻp yillik izlanishlari asosida qirgʻiz tili taqlid soʻzlarining leksik-semantik, fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini misollar asosida bayon qiladi [8]. Uning fikricha, obrazli soʻzlar tovushga taqlid soʻzlarga nisbatan ot va feʼllarga yaqin turadi, tovushga taqlid soʻzlardan keskin farq qiladi. U obrazli soʻzlarni alohida kategoriya sifatida qaralishi kerak, deb hisoblaydi.

Oʻzbek tilida undov va modal soʻzlar qachonki otlashsa, biror gap boʻlagi vazifasida keladi, ammo taqlid soʻzlar otlashmay turib ham mustaqil holatda sintaktik vazifa bajaraveradi. Masalan:

Qiz daraxtni silkitgan edi, olmalar duv-duv toʻkildi (Duv-duv taqlid soʻzi hol vazifasida harakatning belgisini izohlab kelmoqda).

Yoki:

Gʻuj-gʻuj chumolilar uyumi yer ostidan otilib chiqa boshladi (Gʻuj-gʻuj taqlid soʻzi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida predmetning miqdor belgisini ifodalab kelmoqda).

XULOSA

Xullas, shu kabi holatlar sabab oʻzbek tilshunosligida taqlidiy soʻzlar mustaqil soʻz turkumi sirasida ham qayd etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Ашмарин Н.И. О морфологических категориях подражаний в чувашском языке. Издание Академического Центр ТНKP. – Казань, 1928. С.160.
2. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Фонетика и морфология, Часть первая. – Москва, 1954. – С. 239-259.
3. Вундт В. Проблемы психологии народов (электронный ресурс – http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Sociolog/Wundt/_PsNar_02.php (дата обращения 20.05.2016).
4. Германович А.И. Звукоподражание и звукоподражательные слова русского языка. Том XII. – Симферополь, 1947.
5. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию – Москва: Прогресс, 1984. <https://www.twirpx.com/file/435250/>
6. Дмитриев Н.К. О парных словосочетаниях в башкирском языке. – Л., 1930. – С.501-522; Грамматика кумыкского языка. – Москва, – Л., 1940. – С.48-50.
7. Исаков А. О классификации частей речи в казахском языке. Сборник “Вопросы изучения языков народов Средней Азии и Казахстана”. – Ташкент, 1952. – С.123-130; Тюркологический сборник. – Москва, 1951. – С.105.
8. Кудайберганов С. Подражательные слова в киргизском языке. – Москва, 1959. – Б.59.
9. Мюллер М. Лекции по науке о языке. – Москва, 2009// <https://www.twirpx.com/file/1696252/>
10. Стрелков П.Г. Звукоподражательные междометия в языке. – Москва: Учпедгиз, 1956. – С. 240-299.
11. Сарыбаев Ш.Ш. Қазақ тилидегі еліктеу сөздер. – Алматы, 1960.
12. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 448.
13. Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка. – Москва: Наука, 1985. – С.30-35.
14. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966.